Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlashda fiziologik rivojlanish va biologik atamalarning qo'llanilish xususiyatlari.....	656
Ruziyeva Gulsara Temirqulovna	
STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar	662
Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar orqali bolalarda mantiqiy va ijodiy rivojlanishni kengaytirish	665
N. O. Saidova, Tojaliyeva Shahrizoda	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faoliyatini jismoniy vositalari orqali optimallashtirish masalalari	669
Sarimsaqova Bashorat Muhammad qizi	
Talabalarni axborot ta'lim muhitida kasbiy kompetentligini boshqarishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	673
Shoimov Anvar Mamarizayevich, Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shodiyeva Guliston Temirovna	

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	677
Suyarova Orzigul Sodiq qizi	
Ta'lim jarayonida talabalardagi stress holatlarini bartaraf etishning psixologik xususiyatlari.....	681
Toshpulatov Akmal A'zamjon o'g'li, Dumarov Mashhurbek	
Maktabgacha ta'lim faoliyat markazlarida ta'lim jarayonini davlat dasturi asosida modernizatsiya qilish ...	685
Ubaydullayeva Ra'no Furqat qizi	
The Role of STEAM Technologies in Teaching English.....	689
Umida Raimjanovna Irgasheva	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	693
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari o'rtasida metodik kollaboratsiyani boshqarish mexanizmini takomillashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar majmuasi va unda qo'llaniladigan metodlar	698
Xamrayeva Gulnoz Israilovna	
Migratsiya sharoitida yoshlar tarbiyasi: pedagogik risklar va ularning kelib chiqish sabablari	704
Xaydarov Sulaymon Amirqulovich	
Отношение к телу и фитнес-практикам как фактор социально-психологического благополучия женщин	708
Дехконбоева Зулайхо Дилшод қизи	
Masofaviy o'qitish kompetensiyasi uchun shart-sharoitlarning samaradorligini tekshirish bo'yicha eksperimental ish.....	712
Musamedova Kamola Abdulxaqovna, Xalikov Abdulxaq Abdulxairovich	
Masofaviy ta'limning oxirgi besh yil davridagi rivojlanish bosqichlarining tahlili.....	719
Musamedova Kamola Abdulxaqovna, Ibragimova Ozoda Abdulxakovna	
Информированность педагогов ДОО о психофизиологических особенностях и здоровье детей в инклюзивном образовательной среде	723
Намазбаева Лола Закировна	



MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI

Aslanova Zarrina To'ybekovna

Toshkent kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanishning pedagogik va psixologik ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutq nuqsonlarining turlari, ularning bolalar umumiy rivojlanishiga ta'siri hamda nutq faoliyatini faollashtirishda harakatli o'yinlarning o'rni ochib berilgan. Harakatli o'yinlarning bolalarning artikulyatsion apparatini rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish, fonematik eshituvni shakllantirish va grammatik tuzilmani mustahkamlashdagi imkoniyatlari yoritib beriladi. Shuningdek, o'yin faoliyati orqali bolalarda muloqotga kirishish, ijtimoiylashuv va emotsional-irodaviy holatni barqarorlashtirish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Maqolada nutqiy rivojlanishda harakat va nutq uyg'unligini ta'minlovchi didaktik yondashuvlar, pedagogik shart-sharoitlar hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, nutq nuqsoni, nutqni rivojlantirish, harakatli o'yinlar, logopedik ish, kommunikativ ko'nikmalar, o'yin faoliyati.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and psychological significance of using movement games in the process of developing speech in preschool children with speech disorders from a scientific, theoretical and practical perspective. The study reveals the types of speech disorders, their impact on the general development of children, and the role of movement games in activating speech activity. The possibilities of movement games in developing children's articulatory apparatus, expanding vocabulary, forming phonemic hearing, and strengthening grammatical structure are highlighted. It is also substantiated that through game activities, children have a positive impact on the processes of communication, socialization, and stabilization of emotional-volitional state. The article develops didactic approaches, pedagogical conditions, and methodological recommendations that ensure the harmony of movement and speech in speech development.

Key words: preschool age, speech impairment, speech development, movement games, speech therapy work, communicative skills, play activities.

Аннотация: В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения анализируется педагогическое и психологическое значение использования двигательных игр в процессе развития речи у детей дошкольного возраста с нарушениями речи. Исследование выявляет типы нарушений речи, их влияние на общее развитие детей и роль двигательных игр в активизации речевой деятельности. Подчеркиваются возможности двигательных игр в развитии артикуляционного аппарата детей, расширении словарного запаса, формировании фонематического слуха и укреплении грамматической структуры. Также обосновывается, что посредством игровых занятий дети получают положительное влияние на процессы коммуникации, социализации и стабилизации эмоционально-волевого состояния. В статье разработаны дидактические подходы, педагогические условия и методические рекомендации, обеспечивающие гармонию движения и речи в развитии речи.

Ключевые слова: дошкольный возраст, нарушения речи, развитие речи, двигательные игры, работа логопеда, коммуникативные навыки, игровые занятия.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar sonining ortib borayotgani ularning nutqiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash masalasini dolzarb pedagogik muammoga aylantirmoqda.

Nutq – bolaning bilish jarayonlari, shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiy muhitga moslashuvida yetakchi omil hisoblanadi. Nutqiy rivojlanishdagi kamchiliklar esa bolaning muloqotga kirishishi, o'quv faoliyatiga tayyor-



garligi hamda emotsional holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois maktabgacha yosh davridayoq nutq nuqsonlarini barvaqt aniqlash va ularni samarali korreksiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida o'yin yetakchi faoliyat turi bo'lib, ayniqsa harakatli o'yinlar bola organizmining psixofiziologik rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Harakat va nutqning o'zaro uzviy bog'liqligi harakatli o'yinlarni nutqni rivojlantirish jarayonida samarali pedagogik vosita sifatida qo'llash imkonini beradi. Harakatli o'yinlar orqali bolalarning artikulyatsion harakatlari faollashadi, nafas olish va nutqiy ritm muvofiqlashadi, fonematik eshituv hamda lug'at boyligi rivojlanadi. Shu bilan birga, o'yin jarayoni bolalarda muloqot ehtiyojini kuchaytirib, ijobiy emotsional muhitni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda harakatli o'yinlardan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti – maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti – nutq nuqsoniga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda harakatli o'yinlardan foydalanish mazmuni, shakllari va metodlari.

Tadqiqot maqsadi – maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda harakatli o'yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularning samaradorligini asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini tahlil qilish.
2. Harakatli o'yinlarning bolalar nutqiy va umumiy rivojlanishiga ta'sirini ilmiy manbalar asosida o'rganish.
3. Nutqni rivojlantirishda harakatli o'yinlardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash.
4. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishda harakatli o'yinlarga asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
5. Harakatli o'yinlar asosida olib borilgan mashg'ulotlarning samaradorligini tahlil qilish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish masalasi pedagogika, maxsus pedagogika va logopediya fanlarida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni o'rganishda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan nutq rivojlanishi, o'yin faoliyati va harakatning psixofiziologik ahamiyatiga oid qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda nutq va harakatning o'zaro bog'liqligi masalasi dastlab L.S.Vigotskiy^[1], A.N.Leontyev^[2] va A.R.Luriya^[3] kabi olimlarning ilmiy qarashlarida asoslab berilgan. Ularning fikricha, bola rivojlanishida harakatli faoliyat nutqning shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, o'yin esa bolaning yetakchi faoliyat turi sifatida nutqiy va kognitiv jarayonlarni faollashtiradi. J.Piaget^[4] tadqiqotlarida sensor-motor tajriba bolaning intellektual va nutqiy rivojlanishining poydevori sifatida talqin qilinadi.

Logopediya sohasida xorijiy olimlardan R.E.Levina^[5], G.A.Volkova, T.B.Filicheva^[6], N.S.Jukova^[7] va E.M. Mastukova^[8] ishlarida nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning mazmuni, metodlari va bosqichlari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda artikulyatsion mashqlar, nafas gimnastikasi, nutqiy o'yinlar keng qo'llanilgan bo'lsa-da, harakatli o'yinlar asosan yordamchi vosita sifatida talqin qilingan. Ayrim tadqiqotlarda (G.A.Volkova) musiqali-harakatli mashqlarning dizartriya va alaliya holatlaridagi ijobiy ta'siri qayd etilgan.

So'nggi yillarda Yevropa va Amerika tadqiqotchilari (S.Goldstein, J.Ginsburg, D.Pellegrini) tomonidan o'yin asosidagi ta'lim va harakatli o'yinlarning bolalar nutqiy faolligi, muloqot ko'nikmalari va ijtimoiylashuviga ta'siri empirik tadqiqotlar orqali isbotlangan. Biroq bu tadqiqotlar asosan norma doirasida rivojlanayotgan bolalarga qaratilgan bo'lib, nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash mexanizmlari yetarli darajada yoritilmagan.

O'yin logopedik jarayonda mehnat va ta'lim, bolalarning boshqa faoliyatlari bilan o'zaro bog'liq holda olib boriladi. O'yinda bolalar tevarak-atrofdagi voqelikni amaliy jihatdan o'zlashtirib boradi. Bolalar o'yin jarayonida bilimlarni o'zlashtirish, uni takomillashtirishni asosiy maqsad qilib qo'ymaydilar, biroq kattalardek harakat qilish, boshqa bolalar bilan aloqaga kirishish o'yin vazifalarning jozibadorligi, musobaqa va shunga o'xshashlar bolaning bilimlarini egallab, mustahkamlab borishni taqozo etadi. Bolalar hatto didaktik o'yinlarni ham biron narsani bilib olish uchun o'ynamaydilar. Ammo o'yin jarayonida bolaning bilimi o'zi sezmagan holda o'z-o'zidan takomillashib boradi.



Logopedik o'yinlarda – bolalar kelishuvda ishtirok etish, tushintirish, yordam berish, o'yin davomida maslahat berish, o'yinning yangi mavzusini taklif etish kabi o'yin mazmun – mohiyatini maqsadga yo'naltira oladigan, bolalarning o'yindagi mustaqilligini saqlab qolish va rivojlantirishga erishadigan kuch – o'yinga rahbarlik qilayotgan shaxs bo'lmog'i kerak.

Logopedik mashg'ulotlar jarayonida unga bevosita rahbarlik qilish logopedning, logopedning asosiy vazifalaridan biridir. U bolalar o'yinlarida ishtirok etadi – u yoki bu rolni olib, maslan, ona, shifokor, o'qituvchi bo'lib ishtirok etishi mumkin. Bunday yondoshish bolalarni birlashtirib o'ynash imkonini beradi. Logoped ijro etadigan rol esa taqlid uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Logopedning bolalar o'yinlarida rol o'ynab ishtirok etishi o'yin maqsadining va ayrim bolalarning harakatlarini boyitishga yo'naltirilishi mumkin.

Logoped logopedik o'yin jarayonida bolalar bilan suhbatlashadi, ularga u yoki bu o'yinchoqlar bilan qilinadigan harakatlarni ko'rsatadi. O'yin harakatlarining bayoni va syujetining vujudga kelishi darajasiga qarab, bolalar o'z rollarini so'z bilan atay boshlaydilar. Bunda logopedning savollari, asar qaxramoni sifatida bolaga murojaat qilishga yordam beradi. Bunday harakatlarning barchasi syujetli rolli o'yinni tarkib topishiga yordam beradi.

Bu vazifalarni hal etishning asosiy usuli – logopedning bolalar bilan birgalikda harakat qilishidir. Logoped turli murakkablik darajasiga tayyor syujet taklifini, o'yinning harakat namunasini namoyish etishini qo'llaydi, ya'ni logopedik o'yinga o'yinchoqlar qatorida bo'lgan o'rinbosarlarini joriy etish usulidan foydalanadi. Ko'rsatib o'tilgan usullarning samaradorligi kattalarning bolalar bilan o'yindagi bajonidil harakati bilan ta'minlanadi.

Logoped o'yin davomida bolalar diqqatini asosiy o'yin jihozlarini tanlashga qaratadi, yetishmaganlarini tayyorlashga yordam beradi, o'yinni elementar rejalashtirishga, o'yin vaziyatini uyushtirishga o'rgatadi. Logoped o'yin davomida bolalar diqqatini o'yinning u yoki bu jihatlaridan tortib ularga maslahat berishi kerak, savol tashlashi mumkin. Katta guruhlarda logoped logopedik o'yinlar jarayonida – rollar ijro etishda birmuncha kamroq ishtirok etishi mumkin, biroq agar ular chinakamiga rolga kirishishni xohlasalar, bolalar uni o'z o'yinlariga bajonidil qabul qiladilar.

Mahalliy olimlarimizdan M.Qodirov^[9], D.Raxmonova, N.Jo'raeva^[10], G.Abdurahmonova^[11], S.Karimova^[12] kabi tadqiqotchilarning ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish, logopedik mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'yin texnologiyalaridan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan.

Xususan, N.Jo'rayeva^[10] tadqiqotlarida nutqiy o'yinlarning lug'at boyligini oshirishdagi o'rni yoritilgan bo'lsa, G.Abdurahmonova^[12] ishlarida maktabgacha ta'lim muassasalarida logopedik xizmatni takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston pedagog olimlarining ayrim tadqiqotlarida harakatli o'yinlarning umumiy jismoniy va psixik rivojlanishga ta'siri ochib berilgan bo'lsa-da, nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda harakatli o'yinlardan tizimli, maqsadli va logopedik yondashuv asosida foydalanish masalasi yetarli darajada kompleks o'rganilmagan.

Shu bois, mavjud ilmiy tadqiqotlardan farqli ravishda, ushbu maqolada harakatli o'yinlar nafaqat yordamchi yoki motivatsion vosita, balki nutqni rivojlantirishning asosiy pedagogik mexanizmlaridan biri sifatida talqin etiladi. Muallif tomonidan harakat, nutq va emotsional holat uyg'unligini ta'minlovchi harakatli o'yinlarning logopedik imkoniyatlari aniqlanib, ularni maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayoniga integratsiyalash yo'llari asoslab beriladi. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda harakatli o'yinlarning ahamiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogika, maxsus pedagogika, logopediya va rivojlanish psixologiyasi fanlarining nazariy qoidalariga asoslandi.

Logoped o'yinning mazmunini qanday tashkil etishni oldindan o'ylab qo'ygan va reja asosida olib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazmun qisqa, aniq, hissiyotli bo'lishi kerak. O'yinning vaqtini chegaralash xam yoddan chiqmaslik kerak. Bu o'yinning zarur shartlaridandir. Har bir o'yin o'tilgandan keyin o'yinga yakun yasash va baholash, tahlil qilish muhim shartlardan biri hisoblanadi. O'yinda faol ishtirok etgan bolalar maqto'v eshitib rag'batlantirishlari, kim o'yin qoidalariga rioya qilmaganligi, qoidalarni buzganliklari, qaysi bola o'yinda faol ishtirok etmaganligiga izoh berib boriladi.

Harakatli o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonida o'yin g'oyasi, nutqiyligi, ilmiyliyiligi va rejasiga e'tibor berib, tarbiyaviy, ta'limiy, sog'lomlashtirish natijalariga erishishga qaratilishi kerak. O'yinning muvaffaqiyatli o'tishi ko'p jihatdan rollar taqsimotiga bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun o'yinda ishtirok etayotgan bolalarning xarakteri, individual xususiyatlarini va rivojlanish darajalarini inobatga olish kerak. O'yin davomida javobgarlik va asosiy rollar bitta bolaga topshirilmasdan,



asta-sekin barcha bolalarni jalb qilib borish lozim. Logoped har bir bolaning umumiy holatini kuzatib, tahlil qilib borishi lozim. Bola uzoq vaqt bitta holatda turib qolmasligi, me'yordan ortiq tez chopmasligi, o'yinga nisbatan befarq bo'lmasligini nazorat qilib borish lozim. O'tilgan o'yin muhokamasiga barcha bolalar jalb etilishi kerak. Bu esa bolalarni o'z harakatlarini tahlil qilishga o'rgatadi. O'yin qoidalarini va harakatlarini to'g'ri bajarishga ongli munosabatlarni uyg'otadi.

Tadqiqotda, avvalo, nazariy tahlil metodi qo'llanilib, nutq nuqsonlari, o'yin faoliyati hamda harakat va nutq o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka oid xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar o'rganildi. Ushbu metod orqali muammoning ilmiy holati, mavjud yondashuvlar va ularning imkoniyatlari aniqlanib, tadqiqot konsepsiyasini shakllantirishga zamin yaratildi.

Qiyosiy-taqqoslash metodi tadqiqotning yetakchi usullaridan biri sifatida qo'llanildi. Ushbu metod yordamida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan olib borilgan an'anaviy logopedik mashg'ulotlar hamda harakatli o'yinlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar natijalari taqqoslandi. Taqqoslash jarayonida bolalarning lug'at boyligi, tovush talaffuzi, fonematik eshituv, grammatik tuzilmani o'zlashtirish darajasi hamda muloqotga kirishish faolligi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Natijada harakatli o'yinlar integratsiya qilingan mashg'ulotlarda nutqiy faollik va motivatsiya sezilarli darajada oshgani aniqlanib, mazkur metodning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqotda shuningdek, kuzatish metodidan foydalanildi. Kuzatish jarayonida bolalarning harakatli o'yinlar paytidagi nutqiy xulq-atvori, emotsional holati va muloqotga kirishish darajasi muntazam qayd etildi. Ushbu metod harakatli o'yinlarning bolalar psixologik holatiga va nutqiy tashabbusiga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Pedagogik tajriba-sinov metodi orqali harakatli o'yinlarga asoslangan mashg'ulotlar tizimi amaliyotga joriy etildi. Tajriba-sinov jarayonida ishlab chiqilgan harakatli o'yinlar majmuasi logopedik mashg'ulotlarga integratsiya qilinib, uning natijalari dastlabki va yakuniy diagnostika ko'rsatkichlari asosida baholandi. Olingan natijalar bolalarning nutq rivojlanish darajasida ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, diagnostik metodlar (test topshiriqlari, logopedik tekshiruvlar) yordamida bolalarning nutqiy rivojlanish holati aniqlandi. Ushbu metodlar orqali harakatli o'yinlarning nutqiy rivojlanishga ta'siri miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar orqali olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologiya maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda harakatli o'yinlardan foydalanishning pedagogik samaradorligini asoslashga va ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda harakatli o'yinlarning samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotda 5–6 yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar ishtirok etib, ular shartli ravishda nazorat guruhi va tajriba guruhiga ajratildi. Nazorat guruhida an'anaviy logopedik mashg'ulotlar olib borilgan bo'lsa, tajriba guruhida mashg'ulotlar harakatli o'yinlar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etildi.

1-jadval: **Tajriba-sinovdan oldingi bolalarning nutqiy rivojlanish ko'rsatkichlari (%)**

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Tovush talaffuzining to'g'riligi	42 %	44 %
Lug'at boyligi	46 %	45 %
Fonematik eshituv	40 %	41 %
Grammatik tuzilma	38 %	39 %
Nutqiy faollik	43 %	42 %

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba-sinov ishlarining boshlanishida nazorat va tajriba guruhlarida nutqiy rivojlanish ko'rsatkichlari deyarli bir xil darajada bo'lib, bu guruhlar o'rtasida sezilarli farq mavjud emasligini ko'rsatadi. Ushbu holat tajriba natijalarining ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

Pedagogik tajriba jarayonida tajriba guruhida harakatli o'yinlar nutqiy mashqlar bilan uyg'unlashtirildi. Jumladan, tovushlarni mustahkamlashga qaratilgan harakatli o'yinlar, lug'atni kengaytiruvchi rolli-harakatli o'yinlar hamda nafas va ritmni rivojlantiruvchi musiqali-harakatli mashqlar qo'llanildi.

**2-jadval: Tajriba-sinovdan keyingi bolalarning nutqiy rivojlanish ko'rsatkichlari (%)**

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Tovush talaffuzining to'g'riligi	55 %	72 %
Lug'at boyligi	58 %	75 %
Fonematik eshituv	54 %	70 %
Grammatik tuzilma	52 %	68 %
Nutqiy faollik	57 %	78 %

Mazkur jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhi bolalarida nutqiy rivojlanish ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, nutqiy faollik (78 %) va lug'at boyligi (75 %) ko'rsatkichlarida yuqori o'sish kuzatildi. Bu holat harakatli o'yinlarning bolalarda nutqqa bo'lgan qiziqish va muloqot ehtiyojini kuchaytirganini ko'rsatadi.

Tahlil natijasida aniqlangan muammolar:

1. An'anaviy logopedik mashg'ulotlarda bolalarning nutqiy faolligi yetarli darajada ta'minlanmasligi;
2. Nutq mashqlarining bir xilligi bolalarda tez zerikish holatini keltirib chiqarishi;
3. Harakat va nutq uyg'unligining yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, harakatli o'yinlardan tizimli va maqsadli foydalanish bolalarning nutqiy rivojlanishidagi mavjud muammolarni bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi. Harakatli o'yinlar orqali nutq, harakat va emotsional holatning uyg'unlashuvi ta'minlanib, bolalarda ijobiy psixologik muhit shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda harakatli o'yinlardan foydalanishning yuqori pedagogik samaradorligini ko'rsatdi. Pedagogik tajriba-sinov jarayonida olingan natijalar shuni tasdiqladiki, harakatli o'yinlar nutqiy mashg'ulotlar bilan integratsiyalashgan holda qo'llanilganda bolalarning tovush talaffuzi, lug'at boyligi, fonematik eshituv, grammatik tuzilmani o'zlash-tirish hamda nutqiy faolligi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, an'anaviy logopedik mashg'ulotlar bolalarda nutqni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan harakat, emotsional holat va muloqot ehtiyojini to'liq qamrab olmaydi. Natijada bolalarda nutqiy faollikning sustligi, mashg'ulotga bo'lgan qiziqishning tez pasayishi kabi muammolar kuzatiladi. Tajriba guruhida esa harakatli o'yinlar orqali nutq va harakat uyg'unligi ta'minlanib, bolalarda ijobiy psixologik muhit shakllangani hamda nutqiy jarayonlarning faollashgani aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

- harakatli o'yinlar maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi;
- harakat va nutq uyg'unligi bolalarda artikulyatsion harakatlar, nafas olish va nutqiy ritmni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi;
- o'yin faoliyati bolalarda nutqiy motivatsiyani kuchaytirib, muloqotga kirishish jarayonini faollashtiradi;
- harakatli o'yinlarga asoslangan mashg'ulotlar logopedik ish samaradorligini oshiradi.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish va tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida logopedik mashg'ulotlarni tashkil etishda harakatli o'yinlarni tizimli va maqsadli ravishda qo'llash tavsiya etiladi.
2. Har bir nutqiy vazifa (tovush qo'yish, lug'atni boyitish, grammatik tuzilmani shakllantirish)ga mos harakatli o'yinlar majmuasini ishlab chiqish lozim.
3. Logoped va tarbiyachilar uchun harakatli o'yinlar asosida nutqni rivojlantirish bo'yicha metodik qo'llanmalar yaratish va malaka oshirish kurslarida ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratish zarur.



4. Ota-onalarni bolalar bilan uy sharoitida harakatli o'yinlar orqali nutqni rivojlantirish metodlari bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir.
5. Kelgusida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarda harakatli o'yinlarning turli nutq nuqsonlari (dizartriya, alaliya, fonetik-fonematik yetishmovchilik va boshqalar)ga ta'sirini chuqurroq o'rganish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarni takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л.С. Психология развития ребёнка. - М.: Педагогика, 1984.
2. Леонтьев А.Н. Деятельность, сознание, личность. - М.: Политиздат, 1975.
3. Лурия А.Р. Проблемы речи и мышления. - М.: Наука, 1979.
4. Пиаже Ж. Язык и мышление ребенка. - Лондон: Routledge, 1959.
5. Левина Р.Е. Основы логопедии. - М.: Просвещение, 2005.
6. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Методология логопедической работы. - М.: Владос, 2010. Волкова Г.А. Логоритмика. - М.: Академия, 2004.
7. Жукова Н.С. Нарушения речи у детей. - М.: Владос, 2007.
8. Мастюкова Е.М. Основы специальной педагогики. - М.: Академия, 2011. Qodirov M. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. - T.: O'qituvchi, 2018.
9. Jo'raeva N. Maktabgacha ta'limda nutq o'stirish texnologiyalari. - T.: Fan va texnologiya, 2019.
10. Abdurahmonova G. Logopedik ishni tashkil etish asoslari. - T.: Universitet, 2020.
11. Karimova S. Bolalarda nutq buzilishlarini korreksiya qilish. - T.: Innovatsiya, 2021.
12. Raxmonova D. Maktabgacha ta'limda o'yin texnologiyalari. - T.: Ilm ziyo, 2017.
13. Ismoilova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiya. - T.: Fan, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.